

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 4 (16)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Akbarov Ravshan Xalimovich JADIDLAR MA'RIFATCHILIK FAOLIYATINI YOYISHDA "TARJIMON" GAZETASINING O'RNI	4
2	Ахрарова Амалия Искандеровна ЭВОЛЮЦИЯ ФОРМАТОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЯПОНИИ: СТАНОВЛЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕГИОНАЛЬНОГО ДИАЛОГА	14
3	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССР САБЗАВОТ-ПОЛИЗ ЭКИНЛАРИ ВА КАРТОШКА ИЛМИЙ – ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН	27
4	Israilov Nodir Raximjonovich XVI ASR FRANSUZ SHARQSHUNOSLARI ASARLARIDA AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING TADQIQ ETILISHI	39
5	Kandaxarov Anvarjon Xasanovich BUXORO XONLIGIDA JO'YBOR XOJALARINING IQTISODIY QUDRATI: SHAKLLANISH OMILLARI VA IJTIMOY-SIYOSIY TA'SIRI	45
6	Mamajonov Soyibjon Xalilovich AMIR TEMUR VA TO'XTAMISHXON MUNOSABATLARI YOZEF FON XAMMER-PURGSHTAL TALQINIDA	52
7	Mahkamova Zulxumor Murodjon qizi TURKISTON ASSRNING SOLIQ SIYOSATI TARIXIDA KADRLAR TARKIBINING AKS ETISHI	58
8	Mirzayeva Zaxra Xayritdinovna KO'RGAZMA ORTIDAGI IMPERIYA: KAUFMAN DAVRIDA TURKISTONDA MUSTAMLAQACHILIK SIYOSATINING NAMOYON BO'LISHI	64
9	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich TO'SKENT VOHASINING QADIMGI VA RIVOJLANGAN ORTA ASRLAR DAVRI TARIXI VA MADANIYATIGA OID YOZMA MANBALAR XUSUSIDA	71
10	Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda QO'QON XONLIGIDA AHOLINING OMMAVIY ISHLARGA JALB ETILISHI TARIXSHUNOSLIGI	85
11	Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda QO'QON XONLIGI-XITOIY O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR XORIJIY TADQIQOTCHILAR TALQINIDA	90
12	Raxmankulova Matluba Bayxurazovna XX ASR BOSHLARIDA G'ARBDA TEMURIYLAR KITOBAT SAN'ATINING O'RGANILISHI	96
13	Razzokova Nigora Olimjon kizi INCLUSIVE EDUCATION PRACTICES AND THEIR IMPACT ON LINGUISTICALLY DIVERSE LEARNERS IN MULTICULTURAL CLASSROOMS	107
14	Sadirov Aziz Sirojiddinovich MUSTAQILLIK ARAFASIDA QASHQADARYO VILOYATIDA YO'L TRANSPORT INFRAUZILMASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	113
15	Сиддиков Равшан Бердимуратович ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ХАЛҚАРОЛАШУВИ ТАРИХИГА ДОИР (1997-2016)	120

Israilov N. R.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası katta o‘qituvchisi
 Farg‘ona davlat universiteti
nodirtemur90@gmail.com

XVI ASR FRANSUZ SHARQSHUNOSLARI ASARLARIDA AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING TADQIQ ETILISHI

ANNOTATSIYA

Maqolada XVI asr fransuz sharqshunoslari tomonidan Amir Temur tarixining o‘rganilishi omillari tadqiq qilingan. Mazkur vaqtda Germaniyada Gabsburglar sulolasining kuchayib ketishi Fransiya va Usmonli turklar davlatlari uchun jiddiy xavfni keltirib chiqargan. Natijada, ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar yuzaga kelgan. Fransuz diplomatlari Konstantinopolga XVI asrning 30-yillaridan boshlab tashrif buyurishni boshlashgan. Elchilar mazkur diplomatik missiyalari mobaynida Usmonli turklar davlatidagi tolerantlik siyosatidan hayratda qolishgan. Chunki, ushbu davrda Fransiya diniy mojarolar avjida edi. Katolik va protestantlar o‘rtasidagi kurashni to‘xtatish maqsadida Fransiya hukumati moziyning buyuk hukmdorlari hususan, Amir Temurning davlatchilik faoliyatini tadqiq etishni sharqshunoslarga vazifa qilib qo‘ygan. Sohibqironning tolerantlik siyosati fransuz orientalistlari tomonidan o‘tmishdagi hukmdorlar faoliyati bilan qiyosiy tarzda tahlil qilinib, o‘z asarlarida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Kir II, Doro I, Aleksandr Makedonskiy, Yuliy Sezar, Neron, Amir Temur, Sulton Boyazid, Fransisk I, Jan Boden, Lui Le Rua, College de France, “Fransuz–Usmonli” ittifoqi, Jan de la Foret, “universalizm”.

KIRISH

XV asr boshlarida Fransiya Amir Temur faoliyatini o‘rganishning asosiy sabablari “Yuz yillik urush”, “G‘arbiy bo‘linish” hamda Usmonli turklarning g‘arbga tahdidi bo‘lsa, XVI asrdan boshlab esa qirollarning mutlaq monarxiyaga erishish istagi hamda mamlakatda yuzaga kelgan katoliklar va protestantlar o‘rtasidagi diniy taffovutlar natijasidir.

XV asrning ikkinchi yarmida fransuzlarning Italiyaga bostirib kirishi XVI asrdan boshlab Fransiya Uyg‘onish davri tamadduni rivojlanishiga asosiy sabablardan biri bo‘ldi. Qirol Fransisk I (1515–1547) davridan boshlab mamlakatda aholi savodxonligini oshirish masalasiga alohida e‘tibor berildi. Bunga, XVI asr boshlarida mamlakatda avj olgan diniy nizolar, fransuz qirolining mutlaq boshqaruvga intilishi hamda Gabsburg monarxiyasining Fransiya ta‘sirini misol qilib keltirish mumkin.

Fransiya XVI asrga o‘zining hududiy birlashuvi yakunlagan holda kirib kelgan. Burgundiya gersogligi, Provans va Bretan grafliklari qirollik tarkibiga qo‘shib olingandan so‘ng aholi soni jihatdan G‘arbiy Yevropadagi eng katta davlatga aylanib, mamlakat aholisi 15 mln kishiga yetdi [8]. Mazkur masalalarni to‘g‘ri anglagan holda Fransiya lotin tili monopoliyasini yo‘q qilish maqsadida qirol

Fransisk I 1530-yilda fransuz tilini milliy til deb e'lon qilgan [9]. Shuningdek, Fransiyada Rim papasining ta'sirini kuchsizlantirish hamda tashqi siyosatda Osiyo davlatlari bilan hamkorlik qilish maqsadida Fransiya qiroli asosiy e'tiborini kadrlar tayyorlash masalasiga qaratgan. Shu nuqtai nazardan Fransisk I 1530-yilda qirollik kolleji (College de France)ni tashkil etdi [7:24]. Mazkur dargohda ana shu davr siyosiy muhitidan kelib chiqqan holda moziyning hamda zamonasining buyuk hukmdorlari faoliyati tarixini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

1520-yilda Karl V ning Muqaddas Rim imperiyasi imperatori etib saylanishi, Fransiya tashqi siyosatda navbatdagi muammoga aylangan. Gabsburglar sulolasiga tayangan holda Karl V G'arbiy Yevropada Fransiyaning geografik jihatdan absolyut boshqaruvi bilan o'rab olishga intilgan. Muqaddas Rim imperiyasi imperatorining ta'sir doirasi Yaqin Sharq mintaqasiga ham yetib borgan bo'lib, bundan Usmonlilar imperiyasi ham aziyat cheka boshlagan. Shuningdek, XVI asrning 30-yillariga kelib Fransiya-Italiya munosabatlarning keskinlashuvi, qiroli Fransisk I ning Usmonli imperiyasi sultoni Sulaymon I bilan "Fransuz–Usmonli"* ittifoqini tuzishga olib keldi. Mazkur diplomatik kelishuvdan o'z navbatida Usmonlilar imperiyasi ham manfaatdor bo'lib, Shimoliy Afrika va Gabsburglar imperiyasi masalasida Fransiyaning yordamiga tayanar edi. Xristian va musulmon yurt vakillarining birlashuvi Fransiyada jiddiy tanqidlarga uchragan. Biroq ikki davlat o'rtasida birlashgan harbiy ekspeditsiyalardagi muvaffaqiyatlar davlatlarning harbiy hamda iqtisodiy sohalarini o'sishiga sabab bo'lgan. Elchilar almashinuvining jadallashishi esa Fransiyada Sharq tillari va madaniyatini tadqiq etish qiroli homiyligi va nazoratiga o'tishiga olib kelgan. Natijada XVI asr o'rtalariga kelib qirollik kollejida arab tilini o'rganish yo'lga qo'yilgan.

Fransiyada Sharq qo'lyozmalarini to'plash va o'rganish 1536-yilda Jan de la Foret boshchiligidagi fransuz elchilarining Konstantinopolga yuborilishi natijasida alohida bosqichga chiqqan. Mazkur diplomatik missiya tarkibida tarjimonlik vazifasini bajaragan Giyom Postelga qirollik kutubxonasi uchun qiziqarli qo'lyozmalarni to'plash vazifasi ham yuklatilgan. Fransuz sharqshunosi manbalarni izlash bilan birgalikda, Usmonlilar imperiyasidagi ijtimoiy hayotni o'rgangan. Fransiyada katoliklar va protestantlar o'rtasida kurash kechayotgan bir davrda Kichik Osiyoda nasroniylar, musulmonlar va yahudiylarning bir hukmronlik ostida, uyg'unlikda, istiqomat qilayotganliklarini kuzatgan Giyom Postel qarashlarida "universalizm"* tushunchasi paydo bo'lgan. Dastlab, XVI asrning birinchi yarmida mazkur g'oya Fransiyada yuqori natijaga erishmagan

*Izoh: Franko–Usmonli ittifoqi – 1536-yilda Fransiya qiroli Frensis I hamda Usmonli imperiyasi sultoni Sulaymon I o'rtasida tuzilgan bo'lib, G'arbiy Yevropa va Yaqin Sharq mintaqasida gabsburglar sulolasi boshqaruvinini tugatish asosiy maqsad etib belgilangan. Mazkur ittifoq ikki yarim asr davom etgan bo'lib, XIX asr boshlarida o'z kuchini yo'qotgan. Qarang: Mattingly G. Renaissance diplomacy. – Boston: Houghton Mifflin Company, 1955. – P. 179-180.

*Izoh: Universalizm – individualizmga qarama-qarshi bo'lgan axloqiy dunyoqarash bo'lib, olamni bir butun deb hisoblaydigan fikrlash shakli.

bo'lsa-da, diniy urushlar davrida universalizm tushunchasini jamiyatga yetkazib berish olimlarning asosiy vazifalaridan biriga aylangan.

XVI asrning ikkinchi yarmiga kelib Fransiyada diniy urushlar* davrida universalizm tushunchasini jamoatchilikka yoyishda Jan Boden (1530-1596)ning xizmatlari katta. Fransuz huquqshunosi tomonidan 1576-yilda nashr etilgan "Respublikaning olti kitobi" [1] nomli asarida universalizm, suverentet, ommaviy huquq kabi masalalar yoritilgan. Mazkur asar Jan Boden olib borgan tadqiqotlarning eng yuqorisi hisoblanib, mamlakatda katta shon-shuhrat keltirgan. Tadqiqotning ikkinchi kitob V bobida Solon qonuni, Yuliy Sezar va Neron kabi Rim imperatorlari faoliyatida zolimlik masalasi, Gerkules afsonasining ahamiyati haqida mulohaza yuritish bilan birgalikda, Amir Temur va Sulton Boyazid munosabatlari haqida so'z yuritilgan [1: 253-255]. Tadqiqotda Sohibqironning Usmonli turklarga nisbatan olib borgan siyosatini to'g'ri tahlil etish zarurligi, adolatni ta'minlash maqsadida Amir Temur tomonidan Usmonlilar saltanati harbiy qudratining sindirilishi, Konstantinopolning Sulton Boyazid bosqinchilik siyosatidan qutqarilishiga sabab bo'lganligi ta'kidlanadi [1: 255]. Shuningdek, mazkur tadqiqotdan Amir Temurning hukmdorligi ostida yashagan turli millatlarga nisbatan olib borgan diniy bag'rikenglik siyosati masalasiga ham e'tibor qaratilgan.

XVI asrda sharqshunos Lui Le Rua (1510–1577) Fransiyada Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini keng tahlil etgan. Fransuz tarixshunosi tomonidan 1576-yilda chop etilgan "Olamdagi narsalarning turtiligi va o'zgaruvchanlik to'g'risida" [3] nomli asari, Fransiyadagi siyosiy, diniy inqirozlar yuz bergan davrda nashr etilganligini inobatga olsak, unda orientalist fransuz hukumati va xalqiga o'tmishning bir nechta nomdor hukmdorlari faoliyatini qiyosiy o'rgangan holda, mamlakat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan g'oyalarni andoza sifatida qo'llash mumkinligiga to'xtalgan. Misol uchun muallif, XV asr tarixini talqin etishni Sohibqiron davrini yoritish bilan boshlash kerakligini ta'kidlagan [3: 97-a]. Asarda Nin, Sesostris*, Kir II, Doro I, Aleksandr Makedonskiy, Arshak, Gannibal, Yuliz Sezar, Konstantin, Atilla, Buyuk Karl kabi hukmdorlar boshqaruv tizimini yoritgan holda Amir Temur faoliyatini chuqurroq tadqiq etgan. Masalan, Sohibqironning "Yetti yillik" yurishlari dinamikasidan o'rin olgan Misr uchun yurishni muallif, geografik jihatdan ham alohida o'rgangan. Sohibqiron tomonidan Suriya hududlari zabt etilgach, to'qnashuvda omon qolgan ko'plab fuqarolar Shimoliy Afrika hududlariga qochganligi, biroq, Amir Temur Misr va Sudan hududlariga yurishni davom ettira olmaganligiga qumli cho'llar va suv tanqisligi muammosi sabab bo'lganligini ta'kidlaganligi e'tiborga molikdir [1: 97-a]. Muallif Amir Temur va Misr hukmdori o'rtasida bo'lib o'tgan to'qnashuv jarayonlariga to'xtalmagan. Lui Le Rua uchun asosiy vazifa Sohibqironning Shimoliy Afrika hududlari tomon o'z yurishini davom ettirmaganligi sababini o'rganish, ijtimoiy-

*Izoh: 1562–1598-yillarda Fransiyada katoliklar va protestantlar o'rtasidagi fuqarolar urushi. Qarang: Всемирная история. / Отв. Редакторы: Е.М.Жуков, Е.С.Варга, В.П.Волгин, М.Я.Гейфтер. – Москва: Государственное издательство политической литературы, 1958. Т IV. – С. 225-229.

*Izoh: Sesostris – qadimgi Misrning afsonaviy shohlaridan biri. Qarang: Всемирная история. / Отв. ред.: С.Л.Утченко, Д.П. Каллистова, А.И. Павловский, В.В. Струве. – Москва: Государственное издательство политической литературы, 1956. Т II. – С. 195-196.

iqtisodiy holatlarni tahlil qilish edi. Bundan ko‘zlangan maqsad, Fransiyaning Yaqin Sharq mintaqasi uchun bo‘lajak urushga tayyorlashda nazariy bilimlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etganligini taxmin qilish mumkin.

Shuningdek, Lui Le Rua tomonidan Amir Temur tarixini yoritishdan ko‘zlangan yana bir masala – XVI asrning ikkinchi yarmida Fransiya davom etayotgan fuqarolar urushini to‘xtishda Sohibqironning diniy sohaga bo‘lgan munosabatni o‘rganish bo‘lgan. Unda muallif, Amir Temurning mazkur sohadagi ishtirokini moziyning buyuk hukmdorlari faoliyati bilan qiyosiy tahlil etgan holda o‘rganib, andoza sifatida jamiyatga qo‘llash mumkunligiga murojaat etgan deyish mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunga, muallifning: “Atilla diniy irodasi tufayli va Rim papasining iltimosiga ko‘ra, Rimga bormagan bo‘lsa, Amir Temur ham ibodatxonalarni buzilishiga yo‘l qo‘ymagani hamda Arabistonni payg‘ambari tug‘ilgan joy ekanligidan kelib chiqib u yerga hujum qilmaganligi” kabi fikrlarini misol qilib keltirish mumkin [3: 109-a].

XVI asrning so‘ngi yillarida Fransiya temurshunoslik masalasiga xususan, Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini o‘rganishga alohida urg‘u berildi. Bunga birinchi navbatda uzoq yillardan buyon mamlakatda davom etayotgan diniy mojarolar asos bo‘lsa, Sharq mamlakatlarini egallashga bo‘lgan urinish muammoning ikkinchi sabablaridan biri bo‘lgan. Ayniqsa, fransuz zodagonlarining doimo qirol e‘tiborida bo‘lishga intilishlari, Sharq masalasida, xususan, Yaqin Sharq masalasida ulkan bilimga ega bo‘lishlarini talab etardi. Shu tufaylik yuqori tabaqa vakillari o‘z oilasidan ayrim shaxslarni Yaqin Sharq mintaqasida joylashgan davlatlar faoliyati hamda tarixini o‘rganishga yuborishlari XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab avj ola boshlagan. Fransiyaning qudratli arxiyepiskopi oilasidan bo‘lgan, faoliyatining asosiy qismida bir nechta cherkovlar yepiskopi hamda qirol Genrix IV ning maslahatchilaridan biri bo‘lgan [10] Jan du Bek (1540–1610) ana shunday shaxslardan biri bo‘lgan. Fransuz yozuvchisi Yaqin Sharq mintaqasiga sayohati davomida Amir Temur tarixi arab tilida yoritilgan bir asarga duch kelgan [2: 2]. Biroq Jan du Bek arab tilini bilmasligi natijasida italyan tilidan xabardor mahalliy fuqaroga murojaat etgan va tarjimon mazkur asarni lotin tiliga qisman tarjima qilib bergan [2: 2]. So‘ng Jan du Bek tomonidan asar qayta tahrirlanib, 1595-yilda “Buyuk Tamerlanning tarixi” nomli tadqiqot sifatida nashr etilgan [2]. Ushbu tadqiqotning e‘tiborli tomoni shundaki, Fransiya tarixida birinchi marta Amir Temur nomi ostida asarning nashr etilganligidir. Chunki, XVI asrga qadar faqatgina Sohibqiron faoliyati qamrab olingan alohida asar yozilmagan edi.

XULOSA

XVI asrda Fransiya diniy urushlarning avj olishi hamda fransuz qirollarining mutlaq monarxiyaga intilishlari mamlakatda o‘tmishning buyuk hukmdorlari faoliyatini o‘rganish ehtiyojini keltirib chiqardi. Shu bois, fransuz sharqshunoslari asosiy e‘tiborni Amir Temurning ma‘rifatparvar monarx sifatidagi faoliyatini tadqiq etishga qaratdilar.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bodin I. Les Six livres de la République. – Paris: Chez Jacques du Puys, Libraire Juré, à la Samaritaine, 1577. – 759 p
2. Du bec J. Histoire du grand Tamerlan. – 520 p.
3. Louis Le Roy. De la vicissitude ou variete des choses en l'univers, et concurrence des armes et des lettres par les premieres et plus illustres nations du monde, depuis le temps où àcommencé la ciuilité, & memoire humaine iusques à present. – Paris: Chez Pierre l'Huilier, rue S. Jacques à l'Oliuier, 1576 – 118 p
4. Mattingly G. Renaissance diplomacy. – Boston: Houghton Mifflin Company, 1955. – P. 179-180.
5. Всемирная история. / Отв. ред.: С.Л.Утченко, Д.П.Каллистова, А.И.Павловский, В.В.Струве. – Москва: Государственное издательство политической литературы, 1956. Т II. – С. 195-196.
6. Всемирная история. / Отв. Редакторы: Е.М.Жуков, Е.С.Варга, В.П.Волгин, М.Я.Гефтер. – Москва: Государственное издательство политической литературы, 1958. Т IV. – С. 225-229.
7. Расулова Д.Б. XVII – XX аср бошидаги французбон тадқиқотларда Ўзбекистон тарихи масалалари: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. Самарқанд: СамДУ, 2019. – 155 б.
8. <https://www.france.promotour.info/histoire/histoire-16.php>
9. https://en.wikipedia.org/wiki/Francis_I_of_France
10. https://ru.frwiki.wiki/wiki/Jean_du_Bec-Crespin#Sources

Исраилов Н. Р.

Старший преподаватель кафедры «История Узбекистана»
Ферганский государственный университет
nodirtemur90@gmail.com

**ИССЛЕДОВАНИЕ ЖИЗНИ И ГОСУДАРСТВЕННОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АМИРА ТЕМУРА В ТРУДАХ ФРАНЦУЗСКИХ
ВОСТОКОВЕДОВ XVI ВЕКА**

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются факторы, обусловившие изучение истории Амира Темура французскими востоковедами XVI века. В рассматриваемый период усиление династии Габсбургов в Германии создало серьёзную угрозу как для Франции, так и для Османской империи. В результате между двумя государствами были установлены дипломатические отношения. Французские дипломаты начали посещать Константинополь с 30-х годов XVI века. В ходе своих дипломатических миссий послы были поражены политикой религиозной терпимости, проводившейся в Османском государстве. Это объяснялось тем, что в самой Франции в то время религиозные конфликты достигли особой остроты. С целью прекращения противостояния между католиками и протестантами французское правительство поручило востоковедам изучить государственную деятельность великих правителей

прошлого, в частности Амира Темура. Политика толерантности, проводимая Сахибкираном, была проанализирована французскими ориенталистами в сравнении с деятельностью других правителей прошлого и получила отражение в их научных трудах.

Ключевые слова: Кир II, Дарий I, Александр Македонский, Юлий Цезарь, Нерон, Амир Темура, Султан Баязид I, Франциск I, Жан Боден, Луи Ле Руа, Коллеж де Франс, Франко-Османский союз, Жан де Ла Форэ, универсализм.

Israilov N.R.

Senior lecturer at the department of «History of Uzbekistan»

Fergana State University

nodirtemur90@gmail.com

SOCIO-POLITICAL LIFE OF THE FERGANA VALLEY IN THE 17TH CENTURY AS REFLECTED IN HISTORICAL SOURCES

ABSTRACT

The article examines the factors that contributed to the study of Amir Temur's history by French Orientalists of the sixteenth century. During this period, the growing power of the Habsburg dynasty in Germany posed a serious threat to both France and the Ottoman Empire. As a result, diplomatic relations were established between the two states. French diplomats began visiting Constantinople in the 1530s. During their diplomatic missions, these envoys were impressed by the policy of religious tolerance practiced in the Ottoman state. This was particularly noteworthy because France was experiencing intense religious conflicts at the time. In an effort to put an end to the struggle between Catholics and Protestants, the French government encouraged Oriental scholars to study the statecraft and political activities of great rulers of the past, especially Amir Temur. The policy of tolerance pursued by Sahibqiran (Amir Temur) was analyzed by French Orientalists through a comparative study of other historical rulers, and the results of these investigations were reflected in their scholarly works.

Keywords: Cyrus II, Darius I, Alexander the Great, Julius Caesar, Nero, Amir Temur, Sultan Bayezid I, Francis I of France, Jean Bodin, Louis Le Roy, Collège de France, Franco–Ottoman Alliance, Jean de La Forêt, “universalism”.